

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY nomidagi
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**A.Muxsiyeva
«Oila pedagogikasi»
FANIDAN
TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

Toshkent-2014

KIRISH

«Oila pedagogikasi» fanidan ta'lim texnologiyalaridan qo'llash qonun-qoidalariga tayangan holda ishlab chiqilgan. Talabalarga bilim berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida so'z borganda Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatadigan o'qituvchi va domlalariga e'tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor"¹ degan so'zlarini ta'kidlash o'rinlidir. Bu masala "Barkamol avlod yili" Davlat dasturida ham asosiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Kitobda keltirilgan ta'lim texnologiyalarining har biri o'zida o'quv mashg'ulotini o'tkazish shart-sharoiti to'g'risida axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va ko'zlangan natijalarni, o'quv mashg'ulotning rejasi, o'qitishning usul va vositalarini mujassamlashtirgan. SHuningdek, bu o'quv mashg'ulotining texnologik kartasini, ya'ni o'qituvchi va o'quvchining mazkur O'quv mashg'ulotida erishadigan maqsadi bo'yicha hamkorlikdagi faoliyatning bosqichma-bosqich ta'riflanishini ham o'z ichiga oladi. Kitob tarkibi kirish, ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari, har bir mavzu bo'yicha ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'qitish texnologiyasidan iborat. Ma'lumotlar maksimal darajada umumlashtirilgan va tartibga solingan. Ularni o'zlashtirish va yodda saqlab qolishni kuchaytirish uchun jadval va chizmalardan foydalanilgan. Kitobning konseptual asoslari qismida dastlab «Oila pedagogikasi» fanining dolzarbligi va ahamiyati, mazkur o'quv fanining tarkibiy tuzilishi, o'qitishning usul va vositalarini tanlashda tayanilgan konseptual fikrlar, kommunikativlik, axborotlar berilib, so'ngra loyihalashtirilgan, o'qitish texnologiyalari taqdim qilingan.

(1) To'qqiz turdagi ma'ruza mashg'ulotlari: kirish, tematik, muammoli, vizual-ma'ruza, binar ma'ruza, ma'ruza-munozara, hamkorlikdagi ma'ruza, avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza, sharhlovchi ma'ruza berilgan.

(2) Seminar mashg'ulotlarida muammoli seminar, bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga yo'naltirilgan seminar, ishbilarmonlik o'yinlariga asoslangan, aniq holatlarning yechimi bo'yicha seminar o'tish texnologiyalari mavjud va h.k. Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayoniga o'qitishning yangi, Zamonaviy usul va bositlari kirib kelmoqda va samarali foydalanilmoqda. O'qituvchi bilim olishning yagona manvai bo'lib qolishi kerak emas, valki Talabalar mustaqil ishlash jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi, o'quv jarayonining menejeri bo'lishi lozim.

¹ Ўзбекистон Конституцияси – биз учун демократик тараққиёт йўлида ва фуқаролик жамиятини барпо этишда мустаҳкам пойдевордир. – Президент Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 17 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2009 йил 6 декабрь.

3. “Oila pedagogikasi” fani bo’yicha ma’ruza va seminar mashg’ulotlarida ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari

Ta’lim texnologiyasi insoniylik tamoyillariga tayanadi. Falsafa, pedagogika va psixologiyada bu yo’nalishning o’ziga xosligi Talabanning individualligiga alohida e’tibor berish orqali namoyon bo’ladi. SHulardan kelib chiqqan holda “Oila pedagogikasi” kursining ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlarga e’tibor berish kerak.

Ta’limning shaxsga yo’naltirilganligi. O’z mohiyatiga ko’ra bu yo’nalish ta’lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to’laqonli rivojlanishini ko’zda tutadi. Bu esa Davlat ta’lim standarti talablariga rioya qilgan holda O’quvchining intellektual rivojlanishi darajasiga yo’naltirilib qolmay, uningning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi.

- **Tizimli yondashuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o’zida mujassam qilishi zarur: jarayonning mantiqiyliigi, undagi qismlarning o’zaro aloqadorligi, yaxlitligi.

- **Amaliy yondashuv.** SHaxsda ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga ta’lim jarayonini yo’naltirish; O’quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o’quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishni shart qilib qo’yadi.

- **Dialogik yondashuv.** Ta’lim jarayonidagi ishtirokchi sub’ektlarning psixologik birligi va o’zaro hamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi va taqdimot kuchayadi.

- **Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratiya, tenglik, sub’ektlar munosabatida O’qituvchi va O’quvchining tengligi, maqsadini va faoliyat mazmunini birgalikda aniqlashni ko’zda tutadi.

- **Muammoli yondashuv.** Ta’lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish asosida O’quvchi bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning ob’yektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo’llash ta’minlanadi.

- **Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish**, ya'ni O'quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarini jalb qilish. YUqoridagi konseptual yondashuv va "Oila pedagogikasi" fanining tarkibi, mazmuni, O'quv axborot hajmidan kelib chiqqan holda o'qitishning quyidagi usul va vositalari tanlab olindi.
- **O'qitish usullari va texnikasi**: muloqot, keys stadi, muammoli usul, o'rgatubchi o'yinlar, "aqliy hujum", insert, "Birgalikda o'rganamiz", pinbord, ma'ruza (kirish ma'ruzasi, vizual ma'ruza, tematik, ma'ruza-konferenstiya, aniq holatlarni echish, Avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharhlovchi, yakuniy).
- **O'qitishni tashkil qilish shakllari**: frontal, kollektiv, guruh, dialog, polilog va o'zaro hamkorlikka asoslangan.
- **O'qitish vositalari**: odatdagi o'qitish vositalari (darslik, ma'ruza matni, tayanch konspekti, kodoskop)dan tashqari grafik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.
- **O'zaro aloqa vositalari**: nazorat natijalarining tahlili asosida o'qitishning diagnostikasi (tashxisi).
- **Boshqarishning usuli va vositalari**. O'quv mashg'ulotini texnologik karta ko'rinishida rejalashtirish O'quv mashg'ulotining bosqichlarini belgilab, qo'yilgan maqsadga erishishda O'quvchi va O'qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini Talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.
- **Monitoring va Baholash**. O'quv mashg'uloti va butun kurs davomida o'qitish natijalarini kuzatib borish, O'quvchi faoliyatini har bir mashg'ulot va yil davomida reyting asosida Baholash.

Ma'ruza mashg'ulotini tashkil etishning shakl va xususiyatlari:

№	Ma'ruza shakllari	O'ziga xos tavsiflovchi xususiyatlari
1	Kirish ma'ruzasi	Fan to'g'risida yaxlit tasavvur hamda ma'lum yo'nalishlar beradi. Pedagogik vazifasi: O'quvchini ushbu fanning vazifalari va maqsad bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uning o'rnini va rolini belgilash, kursning qisqacha sharhini berish, fanning yutuqlari va taniqli olimlar nomlari bilan tanishtirib, kelajakdagi izlanishlarning yo'nalishini belgilash, tavsiya qilingan O'quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, hisobot va Baholashning muddatlari va shakllarini belgilash.
2	Ma'ruza axborot	Ma'ruzaning odatdagi an'anaviy turi. Pedagogik vazifasi: O'quv ma'lumotlarini bayon qilish va tushuntirish.
3	Sharhlovchi ma'ruza	Bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o'zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bo'limlarining konseptual asosini tashkil etadi. Pedagogik vazifasi: ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning o'zaro aloqadorligini ochish.
4	Muammoli ma'ruza	Yangi bilimlar qo'yilgan savol, masala, holatning muammoliligi orqali beriladi. Bunda O'quvchining O'qituvchi bilan birgalikdagi bilish jarayoni ilmiy izlanishga yaqinlashdi. Pedagogik vazifasi: yangi O'quv axborotining mazmunini ochish, muammoni qo'yish va uni yechimini topishni tashkil qilish, hozirgi zamon nuqtai nazarlarini tahlil qilish.
5	Vizual ma'ruza	Ma'ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish hamda ularga aniq va qisqa sharhlar berishga qaratilgan. Pedagogik vazifasi: yangi O'quv ma'lumotlarini o'qitishning texnik vositalari va audio, bideotexnika yordamida berish.
6	Binar (ikki kishilik) ma'ruza	Bu ma'ruza ikki O'qituvchining yoki ikkita ilmiy maktab namoyondasining, O'qituvchi-Talabaning dialogidan iborat. Pedagogik vazifasi: yangi O'quv ma'lumotlarining mazmunini yoritish.
7	Avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza	Xatolarni izlashga mo'ljallangan mazmuni va uslubiyatida, ma'ruza oxirida tinglovchilar tashxisi o'tkaziladi va qilingan xatolar tekshiriladi. Pedagogik vazifasi: yangi materiallar mazmunini yoritish, berilgan ma'lumotni doimiy nazorat

		qilishga Talabalarni rag'batlantirish.
8	Ma'ruza konferenstiya	Avvaldan qo'yilgan muammo va dokladlar tizimi (5-10 minut)dan iborat ilmiy-amaliy dars sifatida O'quv dasturi chegarasida o'tiladi. Dokladlar birgalikda muammoni har tomonlama yoritishga qaratilishi kerak. Mashg'ulot oxirida O'qituvchi mustaqil ishlar va Talabalarning ma'ruzalarga yakun yasab, to'ldirib, aniqlashtirib xulosa qiladi. Pedagogik vazifasi: yangi O'quv ma'lumotning mazmunini yoritish.
9	Maslahat ma'ruza	Turli ssenariylar yordamida o'tishi mumkin. Masalan, 1) «Savol- Javob» - ma'ruzachi tomonidan butun kurs bo'yicha yoki alohida bo'lim bo'yicha savollarga Javob beriladi. 2) «Savol-Javob-diskussiya» - izlanishga imkon beradi. Pedagogik vazifasi: yangi O'quv ma'lumotni o'zlashtirishga qaratilgan.

“Oila pedagogikasi” FANIDAN MA’RUZA MASHG’ULOTLARIDA O’QITISH TEXNOLOGIYASI

1-mavzu.	“Oila pedagogikasi” fanining xozirgi kundagi ahamiyati.
-----------------	--

1.1. Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi

Vaqt –2 soat	Talabalar soni: 60 nafar
O’quv mashg’ulotining shakli	Kirish, ma’lumotli ma’ruza
Ma’ruza mashg’ulotining rejasi	1. Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari. 2.Oila pedagogikasi boshqa fanlar bilan aloqadorligi. 3. Oila pedagogikasining ilmiy tadqiqot metodlari .
<i>O’quv mashg’ulotining maqsadi:</i> Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari to’g’risida bilimlarni hamda to’liq tasavvurni shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> 1.Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalarini tushun tirish 2.Oila pedagogikasi boshqa fanlar bilan aloqadorligi bilan tanishtirish. 3.Oila pedagogikasining ilmiy tadqiqot metodlarini tushuntirish.	<i>O’quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalarini tushunib oladi. 2.Oila pedagogikasi boshqa fanlar bilan aloqadorligini bilib oladi. 3.Oila pedagogikasining ilmiy tadqiqot metodlari haqida ma’lumotga ega bo’ladi.
O’qitish uslubi va texnikasi	Kirish ma’lumotli ma’ruza, qanday tex., FSMU, insert.
O’qitish vositalari	Proektor, grafik organayzerlar.
O’qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O’qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Darsning texnologik kartasi

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, O'quv mashg'ulotining maqsadi va O'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini Yozib oladi
	1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (2- ilova)	Yozib oladi
2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasini bo'yicha ma'ruza qiladi (3-ilova) Ma'ruza bo'yicha «Qanday texnikasi» usulidan foydalangan holda Talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: . Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.bilasiz?» (4-ilova)	Yozadi, savolga Javob beradi.
	2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi (5-ilova). Ma'ruza bo'yicha «Qanday texnikasi» usulidan foydalangan holda Talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Oila pedagogikasi boshqa fanlar bilan aloqadorligi. to'g'risida ma'lumot bering ?» (6-ilova)	Yozadi, savolga Javob beradi.
	2. 3.Oila pedagogikasining ilmiy tadqiqot metodlari . (7-ilova). «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. FSMU texnikasidan foydalangan holda guruhlarga topshiriqlar beradi (8- ilova) Guruhlarda ishlashga yordam beradi Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini vatman - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umimlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi Fikrlarini tinglab, umimlashtiradi.	Savollarga Javob beradilar, erkin baxs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaidilar.
3 bosqich. YAkuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. Talabalarining Baholash mezonlarini e'lon qilinadi	Yozib oladi
	3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi (9-ilova)	Javob Yozadi
	3.4 Nabvatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "insert" usulida jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi (10-Ilova).	"Insert" usulida jadvalni to'ldiradi.

MAVZU: Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari
Reja

1. Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Oila pedagogikasi boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
3. Oila pedagogikasining ilmiy tadqiqot metodlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari to'g'risida bilimlarni berish.

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi va ilmiy tadqiqot metodlari izohlab berish.

2-ilova

Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga yechim topishi 0-5 ball	Guruh a'zolarining faolligi 0-5 ball	Jami ball

10 – 9 ball – «a'lo».

8-7 ball – «yaxshi».

6–5 ball – «qoniqarli».

3-ilova

Oila pedagogikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

Oila pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustivor vazifalarni mukammal bajarishga xizmat qiladi, oilada bolalarni tarbiyalash, oilada bolalalarni oilaviy hayotga tayyorlash, farzand tarbiyasiga doir tartib qoidalarni sinovdan o'tkazishi va amalda tadbiq etuvchi ota-onaning faoliyatining mazmunidan iborat bilimlar berishdan iborat.

Oila pedagogikasi fanining predmeti: Oila pedagogikasi fani yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, tanlangan vosita usullarini qo'llashi va natijasini ko'ra bilishni hamda tarbiyachilik san'atiga ega bo'lish uchun bilimlarni o'rgatuvchi fandir.


Oila pedagogikasi fanining maqsadi: Oila tarbiyasiga doir muammolarni holati, qonuniyatlarini o'rganish.

Fanning vazifalari: oila tarbiyasiga doir bir butun muammolarni o'rganish va uni tahlil qilish; oilaviy tarbiyaning samaradorligini oshirish va uning davlatning ustivor talablariga javob beradigan komil insonni tarbiyalashni o'rgatish;

«Qanday» organayzerini to'ldiring

4-ilova

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



5-ilova

Oila pedagogikasi boshqa fanlar bilan aloqadorligi.


“Oila pedagogikasi” fanining boshqa fanlar bilan aloqasi:

1. Falsafa - muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlarini kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.
2. Iqtisod – oilada iqtisodiy tarbiyaga oid bilimlar berish, O'quv qurollarini asrash, oilada bolalarni tejamkorlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.
3. Sostiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida oilaviy tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.
4. Etika- oilada shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutubchi nazariy g'oyalarni oildabiy tarbiya jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.
5. Estetika – oilada bolalar tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuning-dek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.
6. Fiziologiya- oilaviy tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyat-larini inovatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.
7. Gigiena – oilada bolalarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihat-dan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.
8. Psixologiya – oiladagi psixoloik muhit shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodabiy sifatlarini tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

«Qanday» organayzerini to'ldiring

6-ilova

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



7-ilova

Oila pedagogikasining ilmiy tadqiqot metodlari.

Oila pedagogikasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari oilada bolalarni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalish-larda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob'ekti va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

- Pedagogik kuzatish metodi.
- Suhbat metodi.
- Anketa metodi.
- Intervyu metodi.
- Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
- Test metodi.
- Pedagogik tahlil metodi.
- Bolalar ijodini o'rganish metodi.
- Pedagogik tajriba metodi.
- Matematik-statistik metod.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochi? xolda baxslashishga hamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Savol	Oila pedagogikasining ilmiy tadqiqot metodlari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

Jonlantirish uchun savollar:

Oila pedagogikasining qanday vazifalari belgilangan?

Oila pedagogikasining tarixiy ildizlarini batafsil yoritib bering?

Oila pedagogikasi qaysi fanlar bilan aloqador?

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

B – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	B	-	+	?
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				

2-mavzu.	CHet elda oila pedagogikasi fanining rivojlanish tarixidan.
-----------------	--

2.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'lumotli ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga oid qarashlari. 2. Yevropa Uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida oila tarbiyasining aks etishi. 3. Rus pedagog olimlarining oila tarbiyasiga oid qarashlari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> CHet elda oila pedagogikasi fanining rivojlanish tarixi to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> 1. Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga oid g'oyalarining mazmunini tushuntiradi. 2. Evropa Uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida oila tarbiyasining aks etishi bilan tanishtiradi. 3. Rus pedagog olimlarining oila tarbiyasiga oid qarashlari haqida ma'lumotlar beradi	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga oid g'oyalarining mazmunini tushunib oladi 2. Evropa Uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida oila tarbiyasining aks etishi tanishib chiqadi. 3. Rus pedagog olimlarining oila tarbiyasiga oid qarashlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'lumotli ma'ruza, Qanday texnikasi, Insert , soat millari.
O'qitish vositalari	Proektor, grafik organayzerlar.
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Darsning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, O'quv mashg'ulotining maqsadi va O'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini Yozib oladi
	1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (2- ilova)	Yozib oladi
2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasini bo'yicha ma'ruza qiladi (3-ilova) Ma'ruza bo'yicha "Soat millari" usulidan foydalangan holda Talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: CHet elda oila pedagogikasi fanining rivojlanish tarixiga oid g'oyalarning mazmuni bilasiz?" (4-ilova)	Yozadi, savolga Javob beradi.
	2.2. Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga oid g'oyalari (5-ilova).«Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. "Qanday" texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar beradi (6- ilova) Guruhlarda ishlashga yordam beradi Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini vatman - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umimlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi Fikrlarini tinglab, umimlashtiradi.	Savollarga Javob beradilar, erkin baxs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar.
3 bosqich. YAKuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. Talabalarining Baholash mezonlarini e'lon qilinadi	Yozib oladi
	3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi (7-ilova)	Javob Yozadi
	3.4 Nabvatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "insert" usulida jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi (8-Ilova).	"Insert" usulida jadvalni to'ldiradi.

1-ilova

MAVZU: Chet elda oila pedagogikasi fanining rivojlanish tarxi

Reja

1. Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga oid qarashlari.
2. Evropa Uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida oila tarbiyasining aks etishi.
3. Rus pedagog olimlarining oila tarbiyasiga oid qarashlari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Chet elda oila pedagogikasi fanining rivojlanish tarixi to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish.

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalar chet elda oila pedagogikasi fanining rivojlanish tarixining mazmuni va oila tarbiya maskani izohlab berish.

2-ilova

Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga yechim topishi 0-5 ball	Guruh a'zolarining faolligi 0-5 ball	Jami ball

10 – 9 ball – «a'lo».

8-7 ball – «yaxshi».

6–5 ball – «qoniqarli».

3-ilova

Yevropa Uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida oila tarbiyasining aks etishi.


Qadimgi Yunoniston va Rimda davlat boshqaruv tartiblarining joriy etilishi oilaning davlat ravnaqidagi ahamiyatini asoslab berishni taqozo etdi. Bunday mas'uliyatli vazifani Suqrot, Arastu, Aflotun, Demokrit, Plutarx, Kvintilian kabi olimlar har tomonlama chuqur ochib bera olganlar, deb bemalol aytish mumkin. Ularning asarlarini o'qib-o'rganish natijasidagina bunday xulosaga kelinadi. **Suqrot (mil.av. 447 – Afina - 399)** – qadimgi yunon mumtoz falsafa-sining asoschisi, afinalik birinchi faylasuf. Nafaqat uning fikrlari, balki o'zi ham oilada bolalarni tarbiyalashda shaxsiy namuna bo'la oladi. Suqrot oilada bolalarni davlat qabul qilgan qonunlarni hurmat qilish, ularga so'zsiz amal qilishga o'rgatishni lozim, deb hisoblaydi.

Aristotel (mil. av. 384-322) – Qadimgi Yunonistonda o'ziga xos falsafiy-pedagogik ta'limot yaratgan mashhur mutafakkir. Uning oila tarbiyasi bilan bog'liq fikrlari ayniqsa, diqqatga sazovor.

Soat millari texnologisini to'ldiring

Yevropa Uyg'onish davri mutafakkirlari asarlarida oila tarbiyasining aks etishi.

O'tgan zamon



Hozirga zamon

5-ilova

Qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga oid g'oyalari

Aflotun (mil.av. 427-347, Afina) – faylasuf, san'atkor, shoir, dra-maturg. Attika qiroli sulolasiga tegishli Kodra oilasida tug'ilgan. Onasi Periktiona ham o'z davrining taniqli olimlari Salon va hukmdor Kritiy-lar sulolasidan.

Aflotun suhbat tarzida badiiy-falsafiy asarlar yozib qoldirgan. Uning ma'rifiy-axloqiy qarashlari «Siyosat», «Davlat», «Qonunlar» asar-larida yozib qoldirilgan. Uning siyosiy, pedagogik va axloqiy qarashlari ham «g'oya» ta'limoti bilan uzviy boqliq. Aflotun o'zining «ideal davlat» nazariyasida jamiyatni uch tabaqaga: davlat arboblari – faylasuflar, soqchi-lar (harbiylar), dehqonlar va hunarmandlarga bo'ladi. Oilalarda ana shu uch tabaqa shakllantirilishi lozimligini uqtiradi.


Demokrit (mil.av. 460-370) – Qadimgi yunon faylasufi, atom nazariyasining asoschisi. U o'z asarlarida oilada bola tarbiyasiga boshqa Yunon mutafakkirlari singari katta ahamiyat beradi.

Demokrit tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo'lib ilgari surdi. «Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o'xshaydi» deb Yozadi.

«Qanday» organayzerini to'ldiring

6-ilova

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



Jonlantirish uchun savollar:

1. Qadimgi Yunon ba Rim mutafakkirlarining oila tarbiyasiga oid g'oyalarini aytib bering?
2. Rus pedagog olimlarining oila tarbiyasiga oid g'oyalarini izohlab bering?

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

B – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	B	-	+	?
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				

3-mavzu.	Oilada bolalarni tarbiyalashda “Avesto” ta’limotlari va islom ta’limotlarining ahamiyati
-----------------	---

3.1. Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi

Vaqt –2 soat	Talabalar soni: 60 nafar
O’quv mashg’ulotining shakli	Ma’lumotli ma’ruza
Ma’ruza mashg’ulotining rejasi	1.”Avesto” da oila va oilaviy tarbiya masalalarining yoritilishi 2. Qur’oni Karimda oilaga munosabat.
<i>O’quv mashg’ulotining maqsadi:</i> Oilada bolalarni tarbiyalashda “Avesto” ta’limotlari va islom ta’limotlarining ahamiyati to’g’risida bilimlarni hamda to’liq tasavvurni shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> 1. ”Avesto” da oila va oilaviy tarbiya masalalarining yoritilishi va ahamiyatini tushuntirish 2. Qur’oni Karimda oilaga munosabat bilan tanishtirish	<i>O’quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. ”Avesto” da oila va oilaviy tarbiya masalalarining yoritilishi va ahamiyatini haqida ma’lumotlarga ega bo’ladilar. 2. Qur’oni Karimda oilaga munosabat jamiyatdagi muhim o’rnini bilib oladi.
O’qitish uslubi va texnikasi	Ma’lumotli ma’ruza, BBB texnologiyasi, Venn diagrammasi, munozara
O’qitish vositalari	Proektor, grafik organayzerlar.
O’qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O’qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Darsning texnologik kartasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, O'quv mashg'ulotining maqsadi va O'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini Yozib oladi
	1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (2- ilova)	Yozib oladi
2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo'yicha ma'ruza qiladi (3-ilova) Ma'ruza bo'yicha «B,B,B texnologiyasi» usulidan foydalangan holda Talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda, rivojlantirishda oilaning roli va ahamiyatini bilasiz?» (4-ilova)	Yozadi, savolga Javob beradi.
	2.2."Avesto" da oila va oilaviy tarbiya masalalarining yoritilishi (5- ilova) «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. "Venn diagrammasi" texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar beradi (6-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini vatman - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.	Savollarga Javob beradilar, erkin baxs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar.
3 bosqich. YAkuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. Talabalarining Baholash mezonlarini e'lon qilinadi	Yozib oladi
	3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi (7-ilova)	Javob Yozadi
	3.4 Nabvatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "Munozara" usulida jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi (8-Ilova).	"Munozara" usulida jadvalni to'ldiradi.

1-ilova

Oilada bolalarni tarbiyalashda "Avesto" ta'limotlari va islom ta'limotlarining ahamiyati

Reja:

1. "Avesto" da oila va oilaviy tarbiya masalalarining yoritilishi.
2. Qur'oni Karimda oilaga munosabat.

O'quv mashg'ulotining maqsadi Oilada bolalarni tarbiyalashda "Avesto" ta'limotlari va islom ta'limotlarining ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish.

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalarga oilada bolalarni tarbiyalashda "Avesto" ta'limotlari va islom ta'limotlarining ahamiyati hamda oilalarning ijtimoiy iymivatlardagi muhim o'rni izohlab berildi

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga yechim topishi 0-5 ball	Guruh a'zolarining faolligi 0-5 ball	Jami ball

10 – 9 ball – «a'lo».

8-7 ball – «yaxshi».

6-5 ball – «qoniqarli».

"Avesto" da oila va oilaviy tarbiya masalalarining yoritilishi.

"Avesto" – otashparastlik, yani zardushtiylik diniga etiqod qilgan ota-bobolarning muqaddas kitobi. Otashparastlikka bundan qariyb uch ming yil muqaddam O'rta Osiyo, Eron va Ozarbayjon xalqlari etiqod qilganlar. Asar o'sha xalqlarning qadimgi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti, urf-odatlarini, diniy qarashlari va olam haqidagi tasavvurlarini bilishda muhim, qimmatli manba hisoblanadi. "Avesto" ning yaratilishi davlat arbobi, otarbon unvonlari sohibi, o'z davrida "Payg'ambar" sifatida shuhrat qozongan Spitamen nomi bilan boqliq bo'lib, Spitamen Zardusht tahminan m.a. 630-553 yillarda yashagan.

"Avesto" so'zining manosi "o'rnatilgan, muqarrar qilingan qonun-qoidalar, hayotning asosiy yo'riqnomasi" demakdir. Shunday qilib Zardusht boylar uchun ham, kambag'allar uchun ham barobar bo'lgan Ezgu fikr, Ezgu so'z, Ezgu amal kabi insonparvarlik tamoyil va aqidalarni yaratib, jamiyatda barchaga munosib hayot nasib etishi oliy maqsad qilib qo'yadi.

B./ B. /B texnologiyasini qo'llash qoidalari

	Mavzu savoli	Bilaman	Bildim	Bilishni xohlayman
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				

Qur'oni Karimda oilaga munosabat .

Muqaddas islom ta'limotida oila mustahkamligi borasida ko'rsatmalar kelgan. Qur'on karimning bir qancha oyatlarida oila va uning ahamiyati haqida marhamatlar bor.

Islom dinida oilaga katta e'tibor berilib, uni qanday tashkil qilish, oila a'zolarining xuquqlari, farzandlar tarbiyasi, uning a'zolari o'rtasida chiqadigan kelishmovchiliklarni muolaja qilish, umuman oilaviy hayotning barcha masalalariga javob topish mumkin. Alloh taolo Qur'oni karimda marhamat qiladiki:


“Uning alomatlaridan (yana biri) – sizlar (nafsni qondirish jihatidan) taskin topishingiz uchun o'zlaringizdan juftlar yaratgani va o'rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir”("Rum" surasi, 21-oyat).

Oila insonning dunyoviy saodatini ta'minlovchi qo'rg'ondir. Oilada erkak kishining mas'uliyati alohida qayd etilgan. Alloh taolo Qur'oni karimda marhamat qilib:

“Erkaklar xotinlar ustidan (oila boshliqi sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlari (erkaklar)ni ayrimlari (ayollar)dan (ba'zi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o'z oilasiga) o'z mol-mulklaridan sarf qilib turishlaridir” – degan.

6-ilova

**Avestoda va diniy ta'limotlarda oila masalalarining yoritilishi bo'yicha
Venn diagrammasi to'ldiring.**



7-ilova

Jonlantirish uchun savollar:

1. "Avesto" da oila va oilaviy tarbiya masalalarining yoritilishi.
2. Qur'oni Karimda oilaga oid g'oyatlardan misollar keltiring.

8-ilova

Munozara qatnashchilariga eslatma

1. Munozara munosabatlar yig'indisi emas, valki muammo yechimi uslubiyatidan iborat.
2. Ko'p gapirmasdan, boshqalarning so'zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo'lida xissiyotlarinni jiloblab, vatafsil o'ylagan holda so'zla.
4. Raqiblarning vaziyatini o'rganib, ularga xurmat bilan murojaat qil.
5. Raqiblarning tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va mulohazali yondash.
6. Munozara predmeti bo'yicha chetga chiqmagan holda to'g'ri yondashib gapir.

Munozara ma'ruzaning boshqaruv dastaklari

Boshlovchi barcha vazifalarni o'ziga oladi – munozara bosqichlarini boshqarish, Javoblarning asoslanishi va to'g'riligini tasdiqlash, qo'llangan termin va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni to'g'ri qo'llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to'g'ri boshqarish.

Taqrizchi – tomonlarning ma'ruzalarini yo'nalishlar bo'yicha belgilash va to'liq xarakterda Baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyliigi va masalalarning aniqqo'yilganligi, xulosalarning aniq ko'rsatilishi.

Raqib – qabul qilingan tadqiqot o'rtasida raqovatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma'ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki hato tomonlarini topish hamda o'zining hal qilubchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

Ekspert – barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarining maxsuldorligini baholaydi.

Munozara reglamentini o'tkazish tartibi

1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'ruzachilarning taqdimotlarin e'lon qiladi.
2. Ma'ruza 5 minut davom etadi.
3. Taqrizchi – 2 minut.
4. Raqib – ma'ruza mavzusi bo'yicha fikrlarini 1-3 minut taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama – 5-10 minut.

4-mavzu.	SHarq mutafakkirlarining asarlarida oila va farzand tarbiyasi haqidagi g'oyalari.
-----------------	--

6.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt –2 soat	Talabalar soni: 60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'lumotli ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1.Ibn Sinoning asarlarida oila tarbiyasiga oid pedagogik qarashlari. 2.Kaykovusning “Qobusnoma”asaridagi oilaviy tarbiyaga oid fikrlari 3. A.Fitratning “Oila” asaridagi oilaviy munosabatlarning yoritilishi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> SHarq mutafakkirlarining asarlarida oila va farzand tarbiyasi haqidagi g'oyalari to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> 1.Ibn Sinoning asarlarida oila tarbiyasiga oid pedagogik qarashlarini tushuntiradi. 2.Kaykovusning “Qobusnoma” asaridagi oilaviy tarbiyaga oid fikrlari bilan tanishtiradi. 3. A.Fitratning “Oila” asarining mazmuni va mohiyatini tushuntirish	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1.Ibn Sinoning asarlarida oila tarbiyasiga oid pedagogik qarashlarini tushunib oladi. 2.Kaykovusning “Qobusnoma”asaridagi oilaviy tarbiyaga oid fikrlariga ega bo'ladi. 3. A.Fitratning “Oila”asarining mazmuni va mohiyatini tushunib oladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'lumotli ma'ruza, FSMU, T texnologiyasi, insert
O'qitish vositalari	Proektor, grafik organayzerlar.
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Darsning texnologik kartasi

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, O'quv mashg'ulotining maqsadi va O'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini Yozib oladi
	1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi (2- ilova)	Yozib oladi
2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo'yicha ma'ruza qiladi (3-ilova) Ma'ruza bo'yicha «FSMU texnologiyasi» usulidan foydalangan holda Talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Ibn Sinoning asarlarida oila tarbiyasiga oid pedagogik qarashlari. bilasiz?» (4-ilova)	Yozadi, savolga Javob beradi.
	2.2. Mavzu rejasining ikkinchi punkti bo'yicha ma'ruza qiladi (5-ilova). Ma'ruza bo'yicha «Qanday texnikasi» usulidan foydalangan xolda Talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Kaykovusning “Qobusnoma” asaridagi oilaviy tarbiyaga oid fikrlari ni bilasizmi?” (6-ilova)	
	2.2. A.Fitratning “Oila” asarining mazmuni va mohiyati. (7-ilova). «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. “T-texnologiyasi” texnikasidan foydalangan holda guruhlariga topshiriqlar beradi.(8-ilova) Guruhlarda ishlashga yordam beradi Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini vatman - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Topshiriqlarning vajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.	Savollarga Javob beradilar, erkin baxs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar.
3 bosqich. YAkuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. Talabalarining Baholash mezonlarini e'lon qilinadi	Yozib oladi
	3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi (9-ilova)	Javob Yozadi
	3.4 Nabvatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va “insert” usulida jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi (10-ilova).	”Insert” usulida jadvalni to'ldiradi.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida oila va farzand tarbiyasi haqidagi g'oyalari.**Reja:**

1. Ibn Sinoning asarlarida oila tarbiyasiga oid pedagogik qarashlari.
2. Kaykovusning "Qobusnoma" asaridagi oilaviy tarbiyaga oid fikrlari
3. A. Fitratning "Oila" asaridagi oilaviy munosabatlarning yoritilishi..

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Sharq mutafakkirlarining asarlarida oila va farzand tarbiyasi haqidagi g'oyalari haqida ma'lumotlar berish.

O'quv faoliyatining natijasi: Talabalarga Ibn Sinoning asarlarida oila tarbiyasiga oid pedagogik qarashlari, Kaykovusning "Qobusnoma" asaridagi oilaviy tarbiyaga oid fikrlari va A. Fitratning "Oila" asarining mazmuni va mohiyati t izohlab

2-ilova

Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruhlar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga yechim topishi 0-5 ball	Guruh a'zolarining faolligi 0-5 ball	Jami ball

10 – 9 ball – «a'lo».

8-7 ball – «yaxshi».

6–5 ball – «qoniqarli»..».

3-ilova

Ibn Sinoning asarlarida oila tarbiyasiga oid pedagogik qarashlari.

Oila tarbiyasidagi bolalar xayotini to'g'ri uyushtirish, ularni vaktdan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota-onalar o'z farzandlariga uqtirishlari lozim. Oila tarbiyasi masalalari bo'yicha maxsus Abu Ali Ibn Sino «Tadbir al-manozil» nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan. Asarda oilada ota-onaning vazifasi va burchiga va oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniksa ota-onalarning oilada mexnatsevarligi bilan farzandlarini xam kasb va xunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masalalariga keng o'rin berilgan. Ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutk odobida, so'z madaniyatida, o'zaro muomala jarayonida eng muhimi amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylik, samimiylikka namuna bo'lmog'i kerak. Oilada farzand tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi uning ma'naviy olamida e'ti qodni shakllantirish, deb hisoblagan edi olim.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

Savol	Ibn Sinoning asarlarida oila tarbiyasiga oid pedagogik qarashlari.
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	


Kaykovusning “Qobusnoma” asaridagi oilaviy tarbiyaga oid fikrlari

Kaykovus oilada otaning vazifasi va burchiga alohida ahamiyat beradi. Farzand tug'ilganda Avvalo unga yaxshi ot qo'yish, undan so'ng aqlli va mehribon murabbiyga topshirish, o'qitish, ulg'aya boshlaganda kasb va hunar o'rgatish, harbiy ish bilan tanishtirish, so'ng subda suzishni o'rgatish kerak, deydi. Kaykovus otaning burchi yana o'z farzandlariga nisvatan qattiqqo'l bo'lishini talab etadi. Lekin bolalarni jazolashni otaning o'zi emas, murabbiy tomonidan vajarilishini istaydi. CHunki otaning o'z qo'li bilan farzandini jazolashi unda adovat hissini paydo qiladi, deydi. Lekin otadan farzand hayiqib tursin, agar u hayiqmasa, ota-onani xor qiladi, deydi. Kaykovus ota-onaning yana bir muhim vazifasi farzand valog'atga etgach, o'g'il bo'lsa uylantirib, qiz bo'lsa uzatib, o'z burchini ado etishi kerak, deb ko'rsatadi. Ayniqsa qiz bola tarbiyasiga e'tibor berish, unga g'amxo'rlik qilish kerakligini alohida qayd etadi: “Agar qizing bo'lsa, uni mastura doyalarga topshirg'il, toki yaxshi parvarish qilg'aylar va kattaroq bo'lg'andin so'ng muallimga topshirg'il ... Valog'atga

etgandan so'ng harakat qilib erga berg'il, unga shafqat va marhamat ko'rguzg'il, nedinkim qiz otaning asiri bo'lur"².

«Qanday» organayzerini to'ldiring

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



6-ilova

A.Fitratning “Oila” asarining mazmuni va mohiyati

Abdurauf Fitrat 1916 yilda «Oila» nomli falsafiy asarini Yozgan bo'lib, unda oilaviy xayotni isloxotidan baxs yuritilgan va adib najot yo'llarini axtarib hal qilarning umuminsoniy qardoshlik g'oyasini targ'ib etgan. Fitrat oilani ijtimoiy vazifalari deb, «Avlod tarbiyasi», «Fikriy tarbiya», «Axloqiy tarbiya» kabi qismlarga bo'ladi. Insonning ma'naviy va aqliy xislatlarini, asosan, uning olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilaydi, deb hisoblagan. Agar, yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa, noto'g'ri tarbiya uning uchun chinakamiga vaxtsizlikka, xatto, xalokatga aylanishini uqtirgan. SHuning uchun maktab tarbiyasi bilan bir katorida oila tarbiyasiga ham katta ahamiyat bergan. Oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddir va aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu xolda maktabning ta'lim-tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo'yadi. Oilada bola bilan tarbiyachi o'rtasida juda yaqin va samimiy munosabat o'zining tabiiyligi va oddiyligi, mazmundorligi, iliqligi, hech qanday rasmiyatchilikning yo'qligi bilan ajralib turishi lozim. Oila odamzod o'zining dastlabki ijtimoiy yo'lini bosib o'tadigan eng muhim soxadir. Bunday oilada ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ma'lum ma'noda izzat hurmat va dildan ishonch kabi chegara bo'ladi.

² Кайковус. Қобуснома. 86-бет.

A.Fitratning “Oila” asarining mazmuni va mohiyati T-texnologiyasi

